



ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA JADID ADABIYOTNING O'RNI VA AXAMIYATI

Rahmatov Shoxrux Shukrullobek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti



Annotatsiya:

Ushbu maqolada yangi davr o‘zbek nasri rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan, jadid adbiyoti namoyondalari Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning hayoti va ijodidagi o‘ziga xoslik xususida fikr yuritilgan. Shuningdek O‘zbek adabiyotida unutilmas iz qoldirgan adiblarning asarlari mazmuni va ularda ilgari surilgan g‘oyalarni aks etgan.

Abstract:

This article reflects on the uniqueness of life and work of modern literary figures, Abdulla Qodiriy and Abdulhamid Cholpon, who made a great contribution to the development of Uzbek prose of the new era. Also, the content and essence of the works of writers who left an unforgettable mark on Uzbek literature, the ideas put forward in them have been expressed.

Kalit so’zlar: Abdulla Qodiriy, “O’tkan kunlar”, Abdulhamid Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, jadid, jadid adabiyot, ichki ishlar organlari xodimi, millat, ma’rifatparvar, adabiyot, roman, vatanparvar.

Key words: Abdulla Qadiri, “O’tkan kunlar”, Abdulhamid Cholpon, “Kecha va kunduz”, contemporary literature, internal affairs officer, nation, enlightener, literature, novel, patriot.

Mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligi, xalqimizning farovon hayot kechirishini ta‘minlash, beباho tabiiy boyliklarimizni asrab avaylash kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda **Ichki ishlar organlari xodimlarining** o‘rni alohida axamiyat kasb etadi. Zero, Yangi O‘zbekistoniming asosiy tayanchi bo‘lgan Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish maqsadida tizimli islohotlar



amalga oshirilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, har bir xodimi tomonidan “**Xalq manfaatlariga xizmat qilish**”ni o‘z xizmat burchi deb biladigan sifatlari tizimni yaratishdir. Yuqoridagi vazifani amalga oshirishda yuksak ma’naviy – axloqiy sifatlarga ega, o‘z burchiga sadoqatli, yuqori ishchanlik va kasbiy sifatlari bo‘lgan Ichki ishlar organlar xodimlarini tayyorlash maqsadida badiiy adabiyot mutoalasiga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”, - deya barchamizni badiiy adabiyot mutoalasiga chorlamoqda. Binobarin, zamonaviy Ichki ishlar organi xodimi avvalo yuksak ma’naviyatli, dunyoqarashi keng shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

E’tiboringizga Ichki ishlar organlari xodimlari o‘qishi uchun tavsiya etilgan jaded adabiyoti durdonalari va ularning mualliflari haqida ma‘lumotlarni havola etmoqchimiz:

Abdulla Qodiri “O’tkan kunlar”

O‘zbek romanchiliging asoschisi, ma‘rifatparvar jadid, Turon xalqining unutilmas asl farzandi Abdulla Qodiri xaqida so‘z borar ekan, uning asarlarisiz o‘zbek adabiyotini tasavvur qilish qiyin. O‘zing to‘g‘ri so‘z, vatarparvarligi bilan barchamizga o‘rnak bo‘la oladigan “To‘g‘rilik orqasida bosh ketsa “eh” demaydigan ” buyuk yovuzchining jasorati barchamizga ma‘lum.

“Bitta narsani hammamiz bilishimiz kerak. Adabiyotsiz iqtisodiyot ham, ma’naviyat ham bo‘lmaydi. O‘zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar”ini bir emas, bir necha marta o‘qigan bo‘ladi. Nega desangiz, uni o‘qigan odam hech qachon oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo‘lsa vatanga xiyonat qilmaydi”-, deya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Abdulla Qodiri ijodiga alohida e’tibor qaratmoqdalar.

“Tariximizning eng kirlik qora kunlari” shamchirog‘i jadid adabiyotining yorqin namoyondasi Abdulla Qodiri bugungi yosh avlod, ayniqsa zamonaviy ichki ishlar organi xodimi ma’naviy qiyofasini shakllantirishda yo‘lboshchi sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi. Zero millat taqdiri, xalq dardi, vatan ravnaqi yo‘lida xizmat



qilishni o‘zining burchi deb bilgan buyuk yozuvchi, o‘lim tahdid solib turgan paytda ham o‘z so‘zidan qatmadi, yurt kelajagi uchun jonini fido qildi.

O‘tkan kunalar romani adibning shoh asari hisoblanib unda o‘zbek xonliklaridagi XIX asr inqirozi – tarqoqlik, parokandalik asosiy mavzu qilib olinadi. Xukmdorlarning xalqqa nisbatanadolatsizligi, buning natijasida yuz bergen inqrozlar, azaldan birtan-u bir jon bo‘lib kelgan qardosh millatlarning qirg‘ini asar mohiyatini ochib beradi. Romanni mutoaala qilish orqali Vatanga muhabbat, fuqarolarga nisbatanadolat, boshqa millat va elatlarga nisbatan do‘stona munosabat va boshqa bir qancha ijobiy sifatlarni aytishimiz mumkin. Muallif ta‘biri bilan aytganda: “Romanda bundan ko‘p jihatlar bordir, ularni bu o‘rinda aytish shart emas, ular o‘quvchining nazaridan qochib qutilmas”. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ham yozuvchiga yuksak e’tibor berib qudagicha ta’riflaydi: “Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonodon bo‘lmasa kerak U faqat o‘zbeklarning emas Turkiston xalqining sevimli adibi ozodlik va istiqlol kuychisidir.

Faqatgina ichki ishlar organi xodimi emas balki har qanday inson O‘tkan kunlar asarini mutoaala qilishi kerak, zero iymoni mustahkam, o‘z yurti uchun xizmat qilishdan charchamaydigan yigit va har qanday holatda ibo-hayosini unutmaydigan, muhabbatiga sodiq qiz obrazi barcha uchun namunadir. Asr oshayotgan asar yillar dovonidan oshar ekan barchamizning qalbimizdan chuqur o‘rin egallab kelmoqda.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon “Kecha va kunduz”

“...Men yo’qsil na bo’lub uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.
Boshimni zo’r ishga berib qo’yubmen,
Men suyub...men suyub...kimni suyubmen?
Men suygan “suyukli” shunchalar go’zal,
Oydan-da go’zaldir, kundan-da go’zal!!!”

Yuqoridagi unutimas misralar orqali Vatan ozdligini tarannum etgan buyuk shoir, Abdulhamid Cho‘lpon juda qisqa, bor-yo‘g‘i qirq yil umr ko‘rdi. Uning hayot yo‘li bir-biridan tubdan farq qiluvchi, voqealarga boy Turkistondagi siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar ko‘zga tashlangan ikki davr chegarasida o‘tdi. Agar ularning birinchisi o‘zida taraqqiyatini g‘oyalari bilan turkistonliklarning milliy o‘zligini uyg‘otgan



eng ziyoli kuchlarni jamlagan jadidchilikning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan ifodalangan bo'lsa, ikkinchisi uni yo'q qildi va "baxtli kelajak" haqidagi tasavvurlarni ostin-ustun qilib tashladi, jamiyatni o'zgartirib, sanoatni yuksaltirish va "madaniy inqilob" niqobi ostida fojeali voqealarga yo'l ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rghanish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya "Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon «Adabiyot yashasa, millat yashar!» degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi"- deya buyuk adibning naqadar teran fikrli, jonkuyar, millatparpar shoir bo'ganini e'tirof etmoqda

Adabiyotimizda Cho'lpon singari millat masalasini, milliy g'urur, milliy ozodlik tuyg'ularini hech ham to'xtamasdan, hech tanaffuslarsiz ko'tarib chiqqan ijodkor yo'q. Cho'lpon butun umr, hayotini millatga tikkan va shu yo'lda yashab asarlarida ham aynan ziyoli, o'qimishli kishilarning jaholat qurboni bo'lganliklari aks etgan. Cho'lpon o'zining ma'rifatparvar g'oyalarda jaholatning qanchalik daxshatli og'riq, tuzalmas kasallik ekanligini ko'rsatib o'tgan. Adabiyotning millat hayotidagi o'rni va roli haqida o'n yetti yoshida maqola yoza olganligi ijodning, adabiyotning millat uchun naqadar kerakligi xususida ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu xususiyati kelgusi yosh avlod uchun o'rnak bo'lsa arziydigan ishidir.

Shoir lirikasiga to'xtalanimizda, yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'rifatparvarlik g'oyalari ochiq-oydin aks etib turganini sezamiz. Xalqni, millatni qoloqlikdan olib chiqish, "malla"larga bo'yin egmaslik tuyg'ulari yo'g'rilgan birgina "Ko'ngil" she'rini olsak:

Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonen,
Kishan kiyma,
Bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'ansan!

-bunday jasoratli hayqiriq, bunday millatni yuksaltirishga, ko'nglini uyg'otishga, chetdan kelgan har kimga ham bo'yin egavermaslikka, "Sen ham odamsan, "malla"lardan hech kaming yo'q" deya fikrni singdirishda Cho'lpondek boshqa ijodkor bo'lmagan. Insonning yuragidagi ajib hislarni uyg'ota olgan va uni da'vat eta olgan chaqiriqlari bilan ajralib turgan.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodi haqida so‘z borar ekan adibning soh asari bo‘lgan “Kecha va kunduz” haqida gapirmaslikning iloji yo‘q, albatta. Cho‘lpon asarni 1934-yili yozib tugatganuning birinchi bobi 1935-yili “Sovet adabiyoti” jurnalining yanvar sonida “Konkursga kelgan materiallar” ruknida “Hamal keldi-amal keldi” degan sarlavha bilan chop etilgan. Kitob holida esa “Kecha va kunduz” 1936-yili bosilib chiqdi. Romanda adib o‘zbek xalqining XX asr boshlaridagi hayotini badiiy gavdalantirishni maqsad qilib qo‘ygan va bunga to‘la erishgan-Turkistonning zulmga, jaholatga,adolatsizlik va haqsizlikka to‘la hayotini ochib bergen. Ayni chog‘da, aytish kerakki, Cho‘lpon buyuk adib bo‘lganligi sababli “o‘tmish-yomon, bugun-yaxshi” degan jo‘n fikr asosida ish olib borolmasdi. Bunday yo‘l tutilganda roman avvaldan belgilab qo‘yilgan g‘oyalarga illyustratsiya bo‘lishdan nariga o‘tmas va bugungi kunda eskirib, qimmatini yo‘qotib, hech kim o‘qimaydigan holga tushib qolardi. Shu tarzda, roman shunchaki uch-to‘rt qahramonning sarguzashtlaridan naql qiluvchi asar emas, Turkistonning tarixiy taqdirini badiiy ifodalagan asar darajasiga ko‘tariladi. Unda chorizmning mustamlakachilik siyosati chuqr ochilgan. O‘zbek xalqining erkinlik, mustaqillik haqidagi g‘oyalari o‘z tajassumini topgan. “Kecha va kunduz” romanining markazida Zebi, Akbarali, Miryoqub turadi; ularning o‘zaro munosabatlari, to‘qnashuvlari, taqdirlari roman syujetining asosini tashkil etadi. Adabiyotshunoslar fikricha, bu – o‘zbek jadidlari harakati boshlagan davrdagi manzara edi. Jadidlar shunday noxush hollar, Zebi fojiasi boshqa takrorlanmasligi uchun uning, Razzoq so‘filarning ko‘zini ochishni o‘zlariga vazifa qilib qo‘yanlar. Shu tariqa jadid maktablari, jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatri vujudga kelgani haqiqatdir. Xullas, o‘zbek romanlari endigina shakllanayotgan davrda maydonga kelgan “Kecha va kunduz” hayotiyligi, milliy ranglarga boyligi, tabiiyligi va samimiyligi bilan, mazmunining teranligi bilan, qahramonlar harakterining butunligi va to‘kisligi bilan realizm tantanasiga katta hissa qo‘shti. “Kecha va kunduz” umrboqiy asarlar sirasiga mansub. Bu asarni o‘quvchilar orasida keng miqyosda targ‘ib qilishimiz va bugungi dorilamon kunlarda yashayotganlariga shukr qilishlariga davat etishimiz lozim. Zero, bungungi yorqin kelajak o‘z-o‘zidan bunyod bo‘lib qolmagan Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, jadida adabiyoti namoyandalari jumladan Abdulla Qodiriy ham Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ham faqat va faqat millat tinchligi va ozodligi yo‘lida tinim bilmadilar, xalqni ma’rifatli qilishdek ulkan





Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th August, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

mas’uliyatni o‘z zimmalariga oldilar, bir zum bo‘lmadiki bu harakatdan charchamadilar. Ular o‘zlarining vatanparvar g‘oyalari bilan umurbod har bir o‘zbek qalbida unutilmas iz qoldirdilar.

Foydalanilgan adabioytlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 20.01.2023-yildagi PQ-10-son qarori/ <https://lex.uz/uz/docs/-6364837>;
1. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.];
2. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romani;
3. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon “Kecha va Kunduz” romani;
4. <https://www.ziyouz.com/>;
5. <https://kutubxonachi.uz/>.